


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**70811002 – Uzumchilik va vinochilik magistratura
mutaxassisligining**

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti
Toshkent kimyo-texnologiya instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 - yil “01” _____ 08 _____ dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	9
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	11
	Kelishuv varag‘i.....	12

1. Umumiy tavsifi

70811002 – *Uzumchilik va vinochilik* mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta‘limda magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 70811002 – *Uzumchilik va vinochilik* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim tashkilotlariga ta‘lim olayotgan baklavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tasnifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:

Qishloq xo‘jaligi ta‘lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib uzumni hosildorligi va sifatini oshirish maqsadida yer, suv, energiya va moddiy-texnika va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash hamda ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish;

uzumchilik xo‘jaliklari va vinochilik tarmoqlari korxonalarida ishlab chiqarish;

uzumchilik va vinochilik sohasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish;

o‘rta maxsus va oliy ta‘lim muassasalarida, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimi muassasalarda maxsus fanlarni o‘qitishni tashkillashtirish.

1.2.2. Kasbiy faoliyatining obyektlari:

Davlat va nodavlat tashkilotlar, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar, (agrofirma), ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, agrosanoat korxonalar, agroklastlar, fermer xo‘jaliklarining boshqaruv tizimlarida muhandis-texnolog vinochi, agronom-uzumchi, pedagog-tadqiqotchi;

qishloq xo‘jaligi va muhandislik sohasiga oid professional ta‘lim, oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, muassasalarida pedagogik faoliyat;

fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyat;
yer, suv, energetika va moddiy texnik resurslar;
qishloq xo'jalik texnik-kimyoviy va biologik vositalar;
uzum mahsulotini yetishtirish;
vino va vino mahsulotlarini ishlab chiqarish;
tok o'simligining seleksiyasi, ampelografiyasi va ko'chatlarini yetishtirish texnologiyasi;
vino va vino mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi;
uzum navlarining assortimenti;
vino mahsulotlarining assortimenti;
hosilga ishlov berish va saqlash texnologiyalari;
uzumchilikning korxonalar va tashkilotlarda boshqaruv tizimi;
vino mahsulotlari ishlab chiqarishda ishlatiladigan asosiy hamda qo'shimcha xom ashyo va tayyor mahsulotlar sifatini nazorat qiluvchi tizim;
o'quv jarayoni;
ilmiy-tadqiqot va loyihalash-konstruktorlik tizimlari;
oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi tashkilotlari;
davlat va mahalliy boshqaruv organlari va ishlab chiqarish korxonalarini;
ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tizimlari.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot va pedagogik;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyiha-texnologik;*
- *servis xizmatini ko'rsatish;*
- *ishlab chiqarish-texnologik;*
- *oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda).*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70811002 – Uzumchilik va vinochilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7 – malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

mehnat jamoasiga rahbarlik qilish;

ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni sifatini nazorat qilish va tatbiq etish;

ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarni rejalashtirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Loyiha-texnologik faoliyatida:

uzumchilikda loyihalarni ishlab chiqish va qo'yishda birlamchi manbalarni tayyorlash;

vinochilik texnologiyasi sohalarida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

uzum yetishtirishning agrotexnik tadbirlari bo'yicha texnologik xaritasini ishlab chiqish.

Servis xizmatini ko'rsatish faoliyatida:

xizmat ko'rsatish sohasida me'yoriy - huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

uzumchilik va vinochilik bo'yicha servis xizmati ko'rsatish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyati:

fermer yoki boshqa shakldagi xo'jaliklarning uzum yetishtirish texnologiyalarini tashkil etish;

uzumning yangi navlaridan foydalanishni asoslash;

uzumni yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;

ishlab chiqarish jarayonlari va agrotexnik tadbirlarni bajarilish sifatini nazorat qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalar, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda qo'llash;

uzumni ko'paytirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;

vino va vino mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
kasbiy etika kodeksiga rioya qilishi.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallash;
elektron o'qitish usullarini egallash;

oliy va professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari uzumchilik va vinochilik bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirishi;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan umumiy talablar.

Ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasidan kasbiy faoliyatida zamonaviy ilmiy asosda foydalana bilishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir

qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilishi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilishi;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

fermer yoki boshqa shakldagi xo'jaliklarda uzum yetishtirish texnologiyalarini tashkil etishi;

uzumning yangi navlaridan foydalanishni asoslashi;

uzumni yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashi;

ishlab chiqarish jarayonlari va agrotexnik tadbirlarni bajarilish sifatini nazorat qilishi;

zamonaviy axborot texnologiyalar, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda qo'llashi;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishi;

ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarni rejalashtirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etishni bilishi;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishni bilishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi bo-rasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etishni bilishi;

uzumchilik va vinochilikda innovatsion ishlanmalar bo'yicha tahlillarni o'tkazish va ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashishi;

ixtisoslikka mos turli xizmatlarni tashkil etish va amalga oshirishni bilishi;

mahsulotni ishlab chiqarish va qayta ishlashni sanoat darajasida tashkil etishni bilishi;

mahsulotni tayyorlash va ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni amalga oshirishga va ularni sifatini ta'minlashga tayyor ekanligi;

tanlangan mahsulotlar, xomashyo va materiallar, va ishchi muhit obyektlarining fizik-kimyoviy, kimyoviy, texnologik va mikrobiologik xususiyatlarini bilishi;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzishi;

ilmiy seminarlarda ishtirok etish, ilmiy mavzularga mos maqolalar tayyorlashi;

sanoat korxonalarini binolarini tavsifi, konstruktsiyaviy tuzilishi, korxonaning asosiy elementlari va qurilish chizmalari to'g'risida ma'lumotlarni bilishi;

sanitariya rejimining talablari, mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi, atrof-muhit ekologiyasi, avariya holatlarini bilishi;

tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashuv shakllangan bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirish va tajriba orttirishga qaratiladi.

Ta'lim mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish;
2. Ilmiy-pedagogik ish;
3. Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish).

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	MFM146	Majburiy fanlar	1440		
1.01	ITMM1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'MM1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	1
1.03	UVITUM1204	Uzumchilik va vinochilikda ilmiy-tadqiqot uslublari	120	4	1
1.04	UVSTIM1204	Uzumchilik va vinochilik sanoatida texnologiyalar va innovatsiyalar	120	4	2
1.05	UVZFKTUM1204	Uzumchilik va vinochilikda zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari	120	4	2
1.06	UYITM1104	Uzum yetishtirishning intensiv texnologiyalari	120	4	1
Uzumchilik mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.07	TOKBIOM1404	Tok biologiyasi	120	4	1
1.08	TOKZKQKM2406	Tok zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurash	180	6	2
1.09	TKYZTM1406	Tok ko'chatini yetishtirishning zamonaviy texnologiyasi	180	6	2
1.10	TOKFBKM2404	Tok fiziologiyasi va biokimyosi	120	4	3
1.11	USDQIM2304	Uzumni saqlash va dastlabki qayta ishlash	120	4	3
2.00	TFE212	Tanlov fanlari	360	12	3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	360	12	3
Kvalifikatsiya		Muhandis-texnolog, agronom-uzumchi, pedagog-tadqiqotchi			
Vinochilik mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.07	VKUM1204	Vinochilik korxonalarini uskunalarini	120	4	1

1.08	VMTM1206	Vinolarning maxsus texnologiyasi	180	6	2
1.09	VBM1206	Vino biokimyosi	180	6	2
1.10	VSUMM1304	Vinochilik va sanoat uzumchiligi mikrobiologiyasi	120	4	3
1.11	ET1304	Eno turizm (Vino turizm)	120	4	3
2.00	TFE212	Tanlov fanlari	360	12	3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	360	12	3
Kvalifikatsiya		Muhandis-texnolog, vinochi, pedagog-tadqiqotchi			
		Jami:	1800	60	
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	(1,2,3,4)
		Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	(1,2,3,4)
		Ilmiy-pedagogik ish	360	12	(1,2,3)
		Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	360	12	4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 634.8+663.2

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim mutaxassisligi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy vazifalari, kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan umumiy talablar, magistraturaning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, malaka talablari, magistraturaning o'quv jarayoni, mustaqil ta'lim, ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyati, loyiha-texnologik faoliyati, servis xizmatini ko'rsatish faoliyati, ishlab chiqarish-texnologik faoliyati, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyati, ilmiy amaliyot (stajirovka), magistrlik dissertatsiya ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, uzumchilik, ampelografiya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:
Toshkent davlat agrar universiteti



Birinchi prorektori S.Ya. Islamov

2024 yil “ 08 ” 06
M.O’.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Rektor B.Sh. Usmonov

2024 yil “ 08 ” 06
M.O’.



O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor M. Boltabayev

2024 yil “ 08 ” 06
M.O’.



O‘zbekiston Respublikasi
Qishloq xo‘jaligi vazirligi
Ilm-fan, innovatsiyalar va ta’limni
rivojlantirish boshqarmasi

Boshlig‘i T. Ataqulov

2024 yil “ 08 ” 06
M.O’.



ChEII “Toshkent vino kombinati” AJ

Bosh direktor M.A. Maxmudov

2024 yil “ 08 ” 06
M.O’.



Qishloq xo‘jaligida xizmatlar
ko‘rsatish agentligi

Direktor N. Abdullayev

2024 yil “ 08 ” 06
M.O’.

O‘simliklar genetik resurslari
ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor Z. Ziyayev

2024 yil “ 08 ” 06
M.O’.



Akademik M. Mirzayev nomidagi
Bog‘dorchilik, uzumchilik va
vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti

Direktori A. Esanqulov

2024 yil “ 08 ” 06
M.O’.

